

**TABIATNI ASRASHDA EKOLOGIK TA'LIM VA AHOLINI
XABARDOR QILISHNING O'RNI : EKOLOGIK TA'LIM VA IJTIMOIIY
ONGNI OSHIRISH ORQALI TABIATNI ASRASHGA DOIR YANGI
YONDASHUVLAR**

Farangiz ABRUYEVA

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
komunikatsiyalar universiteti jurnalistika fakulteti
1-bosqich talabasi

Abstract: The article analyzes the role of environmental education and public awareness in nature conservation. It also shows the need to raise social awareness and form responsibility for nature through the effective implementation of environmental education. Environmental education can be expanded not only in schools and universities, but also through digital platforms, mobile applications, green education centers and local environmental organizations. These approaches can be an effective tool for raising environmental awareness and introducing new practices for nature conservation. The article discusses the social and economic significance of environmental education, as well as the important role of public policy and global cooperation, and the opportunities for developing environmental education using innovative technologies.

Keywords: Environmental education, social awareness, nature conservation, environmental awareness, sustainable development, environmental responsibility, digital platforms, mobile applications, environmental policy, global environmental awareness.

Аннотация: В статье анализируется роль экологического образования и просвещения населения в охране природы. В нем также подчеркивается необходимость повышения общественной осведомленности и воспитания

ответственности по отношению к природе посредством эффективной реализации экологического образования. Экологическое образование можно расширять не только в школах и университетах, но и с помощью цифровых платформ, мобильных приложений, центров зеленого образования и местных экологических организаций. Эти подходы могут стать эффективными инструментами повышения осведомленности об охране окружающей среды и внедрения новых методов охраны природы. В статье обсуждается социальное и экономическое значение экологического образования, а также важная роль государственной политики и глобального сотрудничества, возможности развития экологического образования с использованием инновационных технологий.

Ключевые слова: Экологическое образование, общественное сознание, охрана природы, экологическая осведомленность, устойчивое развитие, экологическая ответственность, цифровые платформы, мобильные приложения, экологическая политика, глобальная экологическая осведомленность.

Annotatsiya: Maqolada ekologik ta'lim va aholini xabardor qilishning tabiatni asrashdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik ta'limning samarali amalga oshirilishi orqali ijtimoiy ongni oshirish va tabiatga nisbatan mas'uliyatni shakllantirish zarurligi ko'rsatilgan. Ekologik ta'lim nafaqat maktab va universitetlarda, balki raqamli platformalar, mobil ilovalar, yashil ta'lim markazlari va mahalliy ekologik tashkilotlar orqali kengaytirish mumkin. Ushbu yondashuvlar ekologik ongni oshirish va tabiatni asrashga doir yangi amaliyotlarni joriy etishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Maqolada ekologik ta'limning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati, shuningdek, davlat siyosati va global hamkorlikning muhim roli hamda innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik ta'limni rivojlantirish imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ekologik ta'lim, ijtimoiy ong, tabiatni asrash, ekologik xabardorlik, barqaror rivojlanish, ekologik mas'uliyat, raqamli platformalar, mobil ilovalar, ekologik siyosat, global ekologik ong.

Kirish. Bugungi kunda tabiatni asrash nafaqat ekologik masala, balki global ijtimoiy va iqtisodiy jarayonning ajralmas qismiga aylangan. Resurslarning kamayishi, iqlim o'zgarishlari va ekologik inqirozlarni oldini olish uchun barcha ijtimoiy qatlamlar, shu jumladan, aholi ongini oshirish va ekologik ta'limni kuchaytirish zarurdir. Ekologik ta'lim va xabardorlik nafaqat shaxsiy mas'uliyatni oshiradi, balki ekologik faoliyatlar va tabiatni asrashga qaratilgan siyosatlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ekologik ta'lim - bu atrof-muhitni yaxshilash, tabiiy resurslarni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bilimlarni berish jarayonidir. Ekologik ta'limning asosiy maqsadi - insonlarni ekologik muammolar haqida xabardor qilish, ularni tabiatga zarar yetkazmasdan yashashga o'rgatishdir. Bu ta'lim nafaqat o'qituvchilar, balki ijtimoiy tashkilotlar, davlat idoralari, kompaniyalar va butun jamiyat tomonidan ham amalga oshirilishi kerak.

Ekologik ta'limning samarali amalga oshirilishi, ayniqsa, yosh avlodda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O'quv dasturlarida ekologik muammolarni o'rganish, tabiiy resurslarni tejash va barqaror rivojlanish prinsiplarini o'rgatish orqali yoshlar ekologik muammolarni anglab, ularga qarshi kurashish uchun amaliy ko'nikmalarni egallashadi. Shuningdek, ekologik ta'limning ijtimoiy ongni oshirishdagi roli ham juda muhimdir. Agar ekologik masalalar jamiyatda keng muhokama qilinsa, bu jamiyatni yanada faollashtiradi va tabiatni asrashga yo'naltiradi. Buning uchun kommunikatsiya kanallari, masalan, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va ekologik tashkilotlar orqali ma'lumot tarqatish samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Aholini ekologik ta'lim bilan ta'minlashning bir qancha samarali usullari mavjud. Internet va mobil texnologiyalar yordamida ekologik ta'limni yanada samarali qilish mumkin. Ekologik mobil ilovalar, onlayn kurslar, video materiallar va bloglar orqali aholi osonlik bilan ekologik bilimlarni olishlari mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali aholini ekologik yangiliklar va muammolar bilan xabardor qilish mumkin. Ochiq joylarda ekologik ta'lim markazlarini yaratish va ekologik ko'rgazmalar o'tkazish aholi uchun ta'lim va amaliy mashg'ulotlar bo'lib xizmat qiladi. Bu markazlar aholiga atrof-muhitni asrash, chiqindilarni qayta ishlash va boshqa ekologik faoliyatlar haqida ma'lumot beradi. Mahalliy ekologik tashkilotlar va ijtimoiy faoliyatlar orqali ekologik ta'limni joylarda targ'ib qilish mumkin. Bu orqali aholiga yaqin bo'lgan ekologik masalalar va muammolarni hal qilishda ishtirok etish imkoniyati yaratiladi. Televizion dasturlar, radio eshittirishlar va ekologik xabarnomalar orqali keng auditoriyaga ekologik ta'lim berish mumkin. Ommaviy axborot vositalari aholi orasida ekologik masalalarni muhokama qilishni boshlash va yangi ekologik yondashuvlarni keng tarqatishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ekologik ta'limning samarali bo'lishi uchun faqat bilim berish yetarli emas. Bu bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish va aholi ongida ekologik mas'uliyatni shakllantirish zarur. Ijtimoiy ongni oshirish uchun bir qancha yondashuvlarni qo'llash lozim. Aholiga tabiatni asrashning nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish zarur. Bu orqali insonlar o'zlarining ekologik faoliyatlarini yaxshilashga motivatsiya olishadi. Aholi ekologik muammolarni o'zlarining yashash joylarida yechishni boshlashlari kerak. Mahalliy ekologik masalalarda ishtirok etish orqali jamiyatda ekologik ongni oshirish va tabiatni asrashga doir yangi yondashuvlarni yaratish mumkin. Har bir insonning ekologik mas'uliyati borligi haqidagi ongni shakllantirish muhimdir. Bu ijtimoiy mas'uliyat, ekologik faoliyatlar va jamiyatning umumiy barqarorligiga katta hissa qo'shadi. Ekologik ta'lim va ongni oshirishning samarali yo'llaridan biri davlat darajasida ekologik siyosatni kuchaytirishdir. Ekologik qonunlar va me'yorlarni amalga oshirish, jamiyatning ekologik ongini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra atrof muhitni muhofazasi jarayonlarida quyidagilar ma'lum bo'lmoqda ekan. 1. Har yili 8 million tonna plastik okeanlarga tashlanadi – bu har daqiqada yuk mashinasining plastik chiqindi tashlashiga teng. 2. O'rmonlarning 80%

yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida – Amazon o‘rmonlarining qariyb 17% qismi oxirgi 50 yil ichida kesilgan. 3. Havo ifloslanishi har yili 7 million kishining erta o‘limiga sabab bo‘ladi – Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma‘lumotlariga ko‘ra, bu asosan sanoat chiqindilari va transport vositalaridan chiqayotgan gazlar tufayli yuz beradi. 4. Dunyo bo‘yicha suvning 70% qishloq xo‘jaligi uchun ishlatiladi – bu esa ba‘zi hududlarda suv tanqisligini keltirib chiqaradi. 5. 20 dan ortiq hayvon turlari har yili yo‘qolib ketadi – asosan yashash muhitining yo‘qolishi va noqonuniy ov natijasida. 6. Yer sharining harorati o‘rtacha 1,2°C ga ko‘tarilgan – bu asosan issiqxona gazlari chiqindilari natijasidir. Agar harorat 1,5°C ga yetsa, dengiz sathining keskin ko‘tarilishi va ekstremal ob-havo hodisalari kuchayishi mumkin. 7. Rejalashtirilgan chiqindilar – texnologik kompaniyalar mahsulotlarni ataylab qisqa umrga ega qilib ishlab chiqarishadi, bu esa elektron chiqindilarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. 8. Har kuni 27,000 daraxt faqat qog‘oz ishlab chiqarish uchun kesiladi – bu esa bioxilma-xillikka va havoning tozaligiga zarar yetkazadi. 9. Yer yuzidagi eng ifloslangan shaharlar – Hindistonning Dehli, Bangladeshning Dakka va Pokistonning Lahore shaharlari eng yuqori havo ifloslanish darajasiga ega. 10. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro kelishuvlar – Parij kelishuvi (2015) global isishning oldini olish maqsadida davlatlarni CO₂ chiqindilarini kamaytirishga undaydi.

O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va mavjud muammolar haqida esa quyidagilardi aytish lozim. 1. Orol dengizining qurishi: O‘zbekiston sobiq tuzumdan Orol dengizining qurib borishi bilan bog‘liq ekologik inqirozni meros qilib oldi, bu aholi salomatligi va atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. 2. Yashil hududlarni rivojlantirish: 2023-yilda mamlakat bo‘ylab 219,7 million tup mevali va manzarali daraxt va buta ko‘chatlari ekildi. Shuningdek, atrof-muhitga yuqori ta’sir ko‘rsatadigan 189 ta sanoat korxonasida 2,83 million dona ko‘chat ekilib, 220 ming tup daraxt ko‘chatlari o‘rin olgan “yashil belbog‘lar” tashkil etildi. 3. Ekologik nazorat: O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish, uni

aniqlash va bartaraf etish maqsadida davlat va jamoatchilik chora-tadbirlari tizimi yo'lga qo'yilgan.

4. Ekologik ta'lim: Hukumat ekologiya sohasida yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Masalan, "Central Asian Green University"ning tashkil etilishi yashil kelajak uchun muhim qadam hisoblanadi.

5. Atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasi: 2019-yilda 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasi tasdiqlandi. Bu kontseptsiya atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan qo'shimcha tashabbuslar va faoliyatlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Suv resurslarini boshqarish va modernizatsiya. O'zbekiston Amudaryo va Sirdaryo havzalari hamda boshqa suv manbalaridan samarali foydalanish uchun yangi strategiyalar va texnologiyalarni joriy etmoqda. Sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish, suvni tejash hamda suv sifati nazoratini kuchaytirishga qaratilgan dasturlar orqali qurg'oqchilik va suv tanqisligi muammolariga yechim topishga harakat qilinmoqda. Iqlim o'zgarishiga moslashish va mitigatsiya. Mamlakatda iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga kelayotgan qurg'oqchilik, cho'l kengayishi va boshqa ekologik salbiy ta'sirlarni kamaytirish uchun, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va sanoat chiqindilarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu strategiyalar orqali mahalliy va mintaqaviy iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish ko'zda tutilgan. Qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi rivojlanish. So'nggi yillarda O'zbekistonda quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu nafaqat energiya ishlab chiqarishning ekologik barqarorligini ta'minlaydi, balki energetika sohasida mustaqillik va innovatsiyalarni ham rag'batlantiradi. Yangi investitsiyalar va loyihalar orqali mamlakat energiya tizimini diversifikatsiyalashga intilmoqda. Atrof-muhit nazorati va qonunchilik takomillashtirish. 2000-yillardan beri O'zbekiston atrof-muhitni muhofaza qilish

sohasida qonunchilik asoslarini mustahkamlashga katta e'tibor qaratmoqda. "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun va boshqa normativ hujjatlar asosida chiqindilarni boshqarish, havo va suv sifatini nazorat qilish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Bu esa nafaqat ekologik muhitni yaxshilash, balki xalq salomatligini himoya qilishga ham xizmat qiladi. 5. Xalqaro hamkorlik va mintaqaviy tashabbuslar. O'zbekiston atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro tashkilotlar va qo'shni davlatlar bilan faol hamkorlik qiladi. Mintaqaviy loyiha va dasturlar doirasida suv resurslarini boshqarish, iqlim o'zgarishi bilan kurashish, hamda ekologik monitoring va tadqiqotlar olib borilmoqda. Xalqaro hamkorlik nafaqat texnologik yechimlarni joriy etish, balki bilim almashish va tajriba orttirish imkonini ham beradi. Ekologik ta'lim va jamoatchilikning ishtiroki. Ekologik ongni oshirish va kelajak avlodni atrof-muhitni muhofaza qilishga undash maqsadida, maktab va oliy ta'lim muassasalarida ekologiya fanlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, nodavlat tashkilotlar va jamoat tashkilotlari ekologik aksiyalar, seminarlar va kampaniyalar orqali keng jamoatchilikni jalb qilmoqda. Bu tashabbuslar aholining ekologik masalalarga nisbatan munosabatini o'zgartirish va atrof-muhitga bo'lgan g'amxo'rlikni kuchaytirishga qaratilgan.

Tabiatni asrashda ekologik ta'lim va aholini xabardor qilishning o'zni haqida gapirganda, yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlardan tashqari, bir qator qo'shimcha va ilg'or yondashuvlarni keltirish lozim. Ekologik ta'limni faqat maktab va universitetlar bilan cheklab qo'ymaslik kerak. Yangi texnologiyalarni inobatga olgan holda, ekologik ta'limni raqamli platformalar va onlayn tizimlarga integratsiya qilish zarur. Misol uchun, interaktiv onlayn kurslar, simulyatsiyalar va o'yinlar orqali ekologik ta'limni keng tarqatish mumkin. Bu texnologiyalar yoshlar orasida ekologik ongni shakllantirishda samarali vositalar bo'lishi mumkin. Yangi texnologiyalar yordamida ekologik muammolarni interaktiv tarzda tushuntirish imkoniyatlari mavjud. VR va AR texnologiyalari orqali foydalanuvchilar virtual muhiti yaratib, iqlim o'zgarishi, plastik ifloslanish va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi masalalar bilan bevosita yuzmayuz kurashishlari mumkin. Bu esa ekologik ta'limni ancha jonli va ta'sirli qiladi.

Ekologik ta'limning o'zi nafaqat ekologik jihatdan muhim, balki iqtisodiy jihatdan ham ahamiyatga ega. Ekologik ta'lim jamiyatga bir qancha ijtimoiy va iqtisodiy foydalarni keltiradi. Ekologik ta'lim orqali aholi o'z resurslaridan samarali foydalanishni o'rganadi. Masalan, energiya tejash, chiqindilarni qayta ishlash, suvni tejash kabi amallar nafaqat tabiatni asrashga yordam beradi, balki iqtisodiy jihatdan ham foydalidir. Ular resurslar sarfini kamaytiradi va oilalarga iqtisodiy yordam beradi. Aholi ekologik mas'uliyatni his etgach, ular nafaqat o'z hayotlariga, balki butun jamiyatning farovonligiga ham mas'uliyatli yondashadilar. Ijtimoiy mas'uliyatni o'zlashtirish, jamiyatda ekologik o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim omil bo'ladi.

Ekologik ta'lim faqat o'quvchilar yoki talabalar uchun emas, balki butun jamiyat uchun zarur. Buning uchun barcha sektorlar va tashkilotlar birgalikda harakat qilishi kerak. Kompaniyalar ekologik ta'limni qo'llab-quvvatlashlari, masalan, ekologik bilimlarni o'rgatish uchun o'z xodimlariga treninglar tashkil etishlari yoki ekologik loyihalarga homiylik qilishlari mumkin. Bunda xususiy sektorning ekologik mas'uliyatini oshirishda katta rol o'ynashini ta'kidlash lozim. Ekologik ta'limni siyosiy siyosatga kiritish zarur. Hukumat ekologik ta'limni maktab dasturlariga kiritish, ekologik muammolarni jamiyatning boshqa qatlamlariga yetkazish va ekosiyosatlarni ishlab chiqishda ekologik masalalarni e'tiborga olish kerak. Misol uchun, ekologik ta'limni milliy va mintaqaviy rivojlanish rejalari bilan bog'lash zarur. Mahalliy jamoatlar va ijtimoiy tashkilotlar ekologik ta'limni amaliy faoliyatlar orqali amalga oshirishi mumkin. O'quv mashg'ulotlari, ekologik festivallar va jamoat yig'ilishlari orqali tabiatni asrashga oid amaliy ko'nikmalarni aholi o'rganishi mumkin. Ekologik ta'limning samarali bo'lishi uchun global miqyosda hamkorlik zarur. Bunday yondashuv ekologik masalalarning global o'lchamdagi muammolarini hal qilishga yordam beradi. : Dunyoning turli burchaklarida ekologik ta'limning muvaffaqiyatli tajribalari mavjud. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida ekologik ta'lim sohasidagi ilg'or yondashuvlar mavjud. Ushbu tajriba va metodlarni boshqa mamlakatlarga joriy qilish orqali global ekologik ongni oshirish mumkin. BMTning barqaror rivojlanish

maqsadlari doirasida ekologik ta'limni kuchaytirish va global miqyosda ijtimoiy ongni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu maqsadlarning bir qismi sifatida, ekologik ta'limni targ'ib qilish va aholini xabardor qilish global iqlim inqiroziga qarshi kurashda yordam beradi. Ekologik ta'limni barcha ijtimoiy qatlamlarga, ayniqsa, ijtimoiy jihatdan zaif guruhlariga yetkazish juda muhim. Ekologik ongning oshishi faqat moliyaviy imkoniyatlari yuqori bo'lgan guruhlar bilan cheklanmasligi kerak. Ekologik ta'lim va xabardorlikni hamma uchun teng va adolatli ta'minlash zarur. Bu, o'z navbatida, tabiatni asrashga qaratilgan umumiy siyosatlarni va amaliyotlarni samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida, tabiatni asrashda ekologik ta'lim va aholini xabardor qilish muhim vosita bo'lib, ijtimoiy ongni oshirish va tabiatga nisbatan mas'uliyatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ekologik ta'lim va xabardorlik nafaqat ekologik masalalarni tushunishga, balki ularga qarshi kurashishda faol ishtirok etishga undaydi. Buning uchun innovatsion yondashuvlar, raqamli platformalar va mahalliy tashkilotlar orqali ekologik ta'limni kengaytirish zarur. Ijtimoiy ongni oshirish orqali tabiatni asrashda yangi yondashuvlar joriy etilishi mumkin, bu esa barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillaridan biri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Andreeva, M. (2019). *Ekologik ta'lim va uning jamiyatdagi roli*. Ekologiya va Ta'lim jurnali, 12(2), 45-60.
2. Karimov, A. (2021). *O'zbekistonning ekologik siyosati: istiqbollar va muammolar*. Tabiat va Ijtimoiy Fanlar, 8(4), 103-117.
3. UNESCO (2021). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.